



AYOL HUKMDORLAR

Rafiqova Soliha Rashid qizi

Shuhratova Pokiza Mirjamol qizi

*Toshkent shahar Chilonzor tumani 173-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabi 8- "V" sinf o'quvchilari*

Kalit so'zlar: ayol, To'maris, O'rta Osiyo, massagetlar, Kir II, Malika Sofya, Rossiya imperiyasi, qirolicha Viktoriya, "Temir xonim", Margaret Tetcher, Buyuk Britaniya, Indira Gandi, Hindiston

Barchamizga ma'lumki davlat boshqaruvi azaldan asosan erkaklar qo'lida bo'lib kelgan. Ammo nega aynan erkaklar? Sababi shuki qadimdan ayyolar "davlatni boshqara olmaydi, bunday unvonning og'irligini ko'tara olmaydi" degan tushuncha bilan ularni "zaif", "ojiza" deb hisoblangan va natijada hukmdorlik nasldan naslga "erkak" nomzod tomonidan davom ettirilgan.

Agar e'tibor bersak tarixiy manbalarda shaxslarning qizi yoki ayoli haqida deyarli ma'lumot berilmaydi, chunki ularning nomi muhim hisoblanmagan va jamiyatda qandaydir o'ringa ega bo'lmagan. To'g'ri naslning davomchisi o'g'il bo'lishi mumkin, lekin bu qiz farzandning jamiyatda tutgan o'rnini yo'qqa chiqarish kerak degani emas. Hozir esa ayol asli ojiza, zaiflik timsoli emasligini, kerak bo'lsa o'sha davrning eng zo'riman degan podshoni ham yer tishlatib ayollar haqidagi tushunchani batamom o'zgartira olgan. Tarixda o'z nomini qoldirgan, jasorat namunalari – "Ayol hukmdorlar" haqida gaplashamiz.

To'maris

To'maris miloddan oldingi VI asrda yashagan. To'maris massagetlar qabilasining malikasi bo'lgan. U besh yoshida ot minishni o'rgangan. To'maris yoshligidan otasidan ta'lim olgan. Uning onasi erta vafot etgan edi. To'marisning eri Rustam juda kuchli qahramon edi, ammo u erta vafot etgan. Rustam vafotidan keyin To'maris taxtga o'tirdi.

Miloddan avvalgi VI asrda Axmoniyalar podshosi Kir II O'rta Osiyoga bostirib kirib qabilalarni bo'ysundirdi. Kir II To'marisga o'z xabarchisini yuboradi. U To'marisga unga uylanishni va ikki xalqni urushsiz birlashtirishni taklif qildi. Massagetlar malikasi esa bu taklifni rad etdi.

Erondan kelgan qo'shin va massagetlar o'rtasidagi dastlabki jangda To'marisning o'g'li boshchiligidagi massagetlar g'alaba qozongan. Ikkinchi



jangda esa forslar hiyla bilan uni asir olishadi. To‘marisning o‘g‘li bunga chiday olmay o‘z joniga qasd qilgan.

Shundan keyin jangga To‘maris boshchilik qiladi. Uzoq davom etgan jang nihoyat, massagetlar g‘alabasi bilan yakunlanadi.

Mashhur qozoq rejissyori Akan Satayev afsonaviy qahramon To‘maris haqida badiiy film suratga olgan.

Malika Sofya

Rossiya tarixidagi eng noodatiy hukmronlik davri podsho Aliksey mihaylovichning qizi, Pyotr I va Ivan V ning opasi malika Sofya Alekseyevna boshqaruvi vaqtiga to‘g‘ri keladi.

U katta akasi Fyodrnig o‘limidan keyin mamlakatni mustaqil ravishda boshqarishga kirishdi. Sababi ukalari Pyotr I va Ivan V hali taxtga chiqish uchun juda kichiklik qilar edilar. Malika Sofya o‘z zamondoshlarini yuqori darajadagi intellekti, o‘ta o‘qimishli va siyosat bilimdoni ekanligi bilan hayratga solgan. Shaxzodalar ulg‘ayguniga qadar malika podsholikka tashrif buyurgan elchilarni qabul qilgan, yangi qonunlar ishlab chiqqan va davlat boshqaruvini tashkil qilgan. Bundan tashqari ilm-fan va falsafaga alohida diqqat qaratgan, Rossiyadagi birinchi oliy o‘quv dargohi “Slavyan-Grek-lotin” akademiyasiga asos solgan.

Temir Xonim

Temir Xonim – 1992-yilda “baronessa” unvoniga sazovor bo‘lgan ,2007-yili Britaniya parlamentida uning bronza haykali o‘rnatilgan bo‘lib, unga atab 2011-yil yaratilgan “Temir Xonim” filmi “Oskar” mukofotiga loyiq topilgan ayol. Bronza haykaliga munosib siyosatchi asl ismi Margaret Xilda Roberts bo‘lib, 1915-yili Linkolnshir grafligining Grantam shaharchasida tug‘ilgan bo‘lib, oddiy oila farzandi bo‘lgan. Dastlab oddiy maktabda o‘qigan, keyin Grantamdagi qizlar maktabida tahsil olishni istagan. Kollejga kelsak, tabiiy fanlar fakultetida o‘qib, "Oksford"ga kirgach, huquqshunoslik yo‘nalishida o‘qiydi. Margaret Britaniya tarixidagi ilk va uzoq faoliyat yuritgan ayol bosh vazir bo‘lib, 1959-yilda parlament a‘zosi etib saylanadi.1970 yilda esa Edvard Xitch tomonidan ta’lim va fan bo‘yicha kotib etib tayinlanadi.Ayol har qanday vaziyatda ham o‘z mag‘rurligini yo‘qotmagan.1975-yilda Konservatorlar saylovida rahbarini yengib,birlashgan qirollikdagi katta partiyani ilk ayol lideri bo‘ladi.1979-yilda saylovda ham g‘oliblikni qo‘lga kiritib, Britaniya bosh vaziri etib saylanadi.U chinakam mano‘da mamlakat taraqqiyoti yo‘lida fidoyilik ko‘rsata olgan kuchli xonimdir. Temir Xonim nafaqat davlat balki ayollar huquqlari uchun ham qattiq kurashgandir.



Indira Gandhi

Indira Gandhi o'zining mashxur familiasiga qaramay, Mahatma Gandhi bilan qarindosh bo'lmagan. Ammo aynan mana shu ayol maxatma Gandhi va otasi tomonidan boshlangan ulkan ishni yakunlay olgan.

Gandi honim jamiyatdagi kastalar tizimini yo'q qilish uchun kurashgan, ular orasidagi qonuniy to'siqlarni olib tashlagan va ayollar ustidan zo'ravonlikka yo'l qo'ymasligi uchun bor kuchi bilan harakat qilgan. Uning boshqaruvi vaqtida Hindiston ulkan ichki va xalqaro mojarolar bilan to'qnashdi-birinchi Hind-Pokiston urushi, Sharqiy Pokistondagi mojarolar sodir bo'ldi, oqibatda, Bangladeshning mustaqilligi e'lon qilindi. Harbiy inqirozlar oqibatida Gandhi hukumati jamiyatning yuqori tabaqa vakillari bilan kelisha olmay qoldi. Shu sababli Indira xonimga 6 yil davomida siyosiy jarayonlarda ishtirok etish taqiqlab qo'yildi. Ammo bunday zarba uni sindirish uchun yetarli bo'lmadi. Belgilangan muddat o'tganidan keyin Indira Gandhi qonuniy usullar bilan qaytadan hokimiyat tepasiga keldi.

Boshqaruvning ikkinchi davri diniy guruhlar- sikhlar va induizm tarafdorlari ila kurashlardan iborat bo'ldi. Mamlakat shunday beqaror vaziyatda ham iqtisodiy rivojlanishda davom etdi. Indira Gandhi hukumat tepasida bo'lgan vaqtlarda uning joniga ko'p bora qasd qilmoqchi bo'lishdi. 1984-yilning 31-oktyabr kuni amalga oshirilgan navbatdagi hujum oqibatida afsonaviy honim olamdan o'tdi.

Viktoriya

To'liq ismi Aleksandrina Viktoriya, 1819-yil 24-mayda, Kensington saroyi, - Angliyaning London shahrida tug'ilgan. 1837-yildan Britaniya qirolichasi, shu bilan birga 1876-yildan Hindistonni ham boshqargan. Qirolicha deyarli 64 yil hukmronlik qilgan bo'lib bu davr "Viktoriya asri" nomini olgan. U qiroli Jorj III ning nabirasi bo'lib, 1820-yili otasi va bobosi, 1837-yilda amakilari vafotidan so'ng taxt vorisi bo'ladi. Viktoriya ta'limga katta e'tibor qaratgan, ijtimoiy masalalarga qiziqmasada, 19-asr Britaniya tarixida "islohot asri" deya nom olgan. U mexanik va texnologik jihatdan o'zgarishlarni qo'llamagan, sabab u eng muhimi siyosiy hokimiyat saqlanib qolinishi ilinjida bo'lgan va Britaniya monarxiyasini saqlab qola olgan. 1840-yil amakivachchasi Saks-Koberg va Gota shahzodasi Albert bilan turmush quradi. Ularning 9 nafar farzandi bo'lib, garchi qirolicha bolalarni xush ko'rmas bo'lsada, onalik va oilani ideallashtira olgan. 1861-yil Albert o'limidan so'ng qattiq tushkunlikka tushib qolsada, hukmronlik davrining ikkinchi yarmiga kelib mashhurligi qayta tiklanadi. Viktoriya o'z qirolligida madaniy, siyosiy, harbiy o'zgarishlarga rahbarlik qilgan yirik monarx ayol edi.



Biz yuqorida sanoqligina ayolning tarixini, taqsinga sazovor ishlarini o‘rgandik. Bunday jasorat egalari haqida yana gapiradigan bo‘lsak hech tugata olmaymiz. Xulosa shuki biz bu ma’lumotlar bilan ayollar erkaklardan kuchli, yoki ulardan ustun demoqchi emasmiz, aslo. Shunchaki ayolga past baho berish kerak emasligini, u ham erkak qilgan ishni qila olishini eslatmoqchi bo‘ldik. Albatta, bugungi kunda bunday qarashga ega insonlar kamdan-kam uchraydi. Ushbu maqolamiz aynan shu insonlar uchun.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 7-fevral kuni xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi. 2018.
2. Мелюкова А.И. Скифия и фракийский мир. М., 1979. 137 с.
3. Ali, T. 1985. An Indian Dynasty. The Story of the Nehru – Gandhi Family. New York: G. P. Putnam’s Sons.
4. Хьюз Л. Царевна Софья. - СПб.: Гранд, 2001
5. King A. Margaret Thatcher: The style of prime minister // The British prime minister / Ed. by King A. – L., 1985. – P. 112-128.